



## TILNING PAYDO BO`LISHI VA ULARNING TADQIQI

Egamqulova Gulzoda Iskandarovna

Samarqand viloyati Payariq tumani

61- umumta'lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda asosiy aloqa vositasi hisoblangan til bundan bir necha ming yillar oldin ancha sodda shaklda paydo bo`lgan edi. Ushbu maqolada tilning paydo bo`lishi borasidagi nazariyalar bayon qilinadi.

**Kalit so'z va iboralar:** Til, millat, o'zlikni anglash, so'z sehri, millat ruhi, ta'lismizimi, onglilik, evolyutsiya, kuzatuvlari.

Til ijtimoiy hodisami, tabiiy hodisami degan savollar tilshunoslik tarixida ko'p martalab bahs munozaralarga sabab bo'lgan. Nemis olimi Avgust Shleyxer naturalizm oqimiga asos soldi va tilga ham tabiiy hodisa deb qaradi. Naturalizm oqimi tushunchasi bo'yicha tillar ham xuddi odamlar kabi tug'iladi, yashaydi, boyiydi, qariydi va o'ladi deyildi. Albatta, tilga bunday baho berish noto'g'ri tushuncha edi. Materialistlar uzil-kesil til tabiiy hodisa degan g'oyani rad etadi. Til jamiyatni taqoza etuvchi ijtimoiy hodisa deb qarashadi. Chunki til otadan qon bilan, onadan sut bilan o'tmaydi. Aytaylik, o'zbek xanodonida tug'ilgan bolani nemislar tarbiyalab olsa tili nemischa chiqadi, nasldan naslga o'tganda o'zbekcha chiqishi kerak edi. Bu narsani Hindistonda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar ham tasdiqlaydi. Bo'rilar to'dasida yashagan bolalarning tili chiqmaganligi ham til bo'lishi uchun jamiyat bo'lishi kerak ekanligining isbotidir. Til genetikaga bo g'liq emas, insonning xarakteri, antropologik tuzilishi avloddan avlodga o'tadi. Genetika fanida til va jamiyat emas irsiyat o'rganiladi. Til va jamiyatni esa sotsiolingvistika fani o'rganadi.

Til va jamiyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat bilan chambarchas bog'liq.

Tilning, dastlabki tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko'plab nazariyalar, ta'lismotlar paydo bo'ldi. Lekin bu nazariya va ta'lismotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil-kesil hal qilib bera olgani yo'q. Qayd etilganidek, jahon tillari



o‘z grammatik qurilishi, lug‘at boyligi va boshqa jihatidan bir-biridan farq qiladi, lekin shu bilan birga ular barcha tillar uchun mushtarak bo‘lgan umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Til davr va zamon bilan hamohang ravishda o‘zgarib boradi ( o‘zbek tilining qadimgi turkiy til davri bilan hozirgi ko‘rinishi chog‘ishtirilsa, bunday o‘zgarishlar qay darajada bo‘lganligi yaqqol seziladi ) va ba’zan, turli ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar oqibatida, muomaladan chiqib ketishi ham mumkin. Masalan, o‘tmishda jahon madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shtgan feklar va rimliklar so‘zlashgan qadimgi yunon va lotin tillari davrlar utishi bilan muomaladan chiqib, o‘lik tillarga aylanib qolgan.

Tildagi o‘zgarishlar tabiatini hamda til taraqqiyotidagi yo‘nalishlar 2 ta boshqa boshqa omil — jamiyat hayotidagi tarixiy o‘zgarishlar hamda til taraqqiyotining muayyan bosqichida uning xususiyatlar bilan belgilanadi. Til tarixining jamiyat tarixi bilan aloqadorligi tilning ichki strukturasi o‘zgarishlarida (asosan, leksika va frazeologiya sohasida), shuningdek, muayyan tilning tarkalish miqyoslari o‘zgarishida (jumladan, uning funksional uslublari taraqqiyotida) va uning lahjalarga bo‘linishi (differensiatsiyasi) darajasida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning ayrim hududiy qismlarga iqtisodiy va siyosiy parchalanishi jarayonlari iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlaridan ustun bo‘lganda, yaxlit, bir butun tillar hududiy lahjalarga bo‘linib ketadi. Aksincha, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy birlashish jarayonlari-- hududiy parchalanish jarayonlaridan ustunlik qilgan davrlarda, laxjaviy differensiatsiya bilan bir qatorda, adabiyotda adabiy til sifatida mustahkamlanib qoluvchi yagona umumxalq tilini yaratishga imkon bo‘ladi. Umumxalq milliy tilning shakllanishi tegishli millatning shakllanishi davrida ro‘y beradi.

Tilning paydo bo`lishi va uning taraqqiyot yo`lini o`rganish tilning qanday hodisa ekanligini - tabiatini tasavvur qilish imkonini beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o`rtasida kurash boradi. Birinchisi, XIX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer tomonidan asos solingen tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikrdir. Shleyxer u yoki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiyligini xalqning irodasi shu hodisaga ta’sir ko`rsata olish-olmasligi nuqtai nazardan aniqlaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog`liq bo`lmaydi, u o‘z qonunlari asosida rivojalanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o`rin olishi kerak. Bundan til dunyodagi



boshqa tabiiy hodisalar singari o`z-o`zicha paydo bo`ladi, rivojlanadi, ma'lum muddatda, yo`q bo`ladi, o`ladi degan ma'no kelib chiqadi. Til kishining tabiiy xususiyatlari (masalan, yurish, nafas olish, ovqatlanish va boshqalar) ga xos narsadir. Olma daraxti ma'lum vaqt o'tishi bilan olma hosili berganidek, odam bolasi ma'lum yoshga yetganda gapira boshlashi kerak. Bunday fikrni ilgari surgan olimlar lotin, sanskrit (qadimgi hind tili) kabi o`lik tillarni misol qilib ko`rsatishadi.

Materialistik tilshunoslik til tabiiy hodisadir, degan g`oyani rad etadi. Tilning paydo bo`lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyatini bilan uzbek bog`langan. F.Engels o`zining mashhur «Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli» asarida tilning kelib chiqishini asoslashda asosiy e'tiborni kishining ijtimoiy mehnatiga qaratadi. Materialistik ta'limotga ko`ra jamiyat a'zolari mahsulot ishlab chiqarar va uni ayirboshlar ekanlar, o`zaro ishlab chiqarish munosabatiga kirishadilar. Bu munosabat tufayli kishilar orasida aloqa zaruriyati tug'iladi. Bunday muammoni faqat odamlar orasida vositachi, fikr almashish quroli bo`lmish til hal qiladi.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko`rmasin, u gapirmaydi. Chunki, til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o`tmaydi, ya`ni uning irsiyatga hech qanday aloqasi yo`q. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari (tanasining va sochining rangi, yuz tuzilishi va boshqalar) avloddan-avlodga o`tadi, lekin o`zbek oilasida tug`ilgan bola faqat o`zbek tilida gapiradi deyish noto`g`ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog`liq; agar chaqaloq ruslar ichida tarbiyalansa, ruscha, tojiklar ichida tarbiyalansa, tojikcha gapiradi.

XX asr boshlarida Hindistonda ro`y bergen voqealari bu mavzuga yaxshi dalil bo`la oladi. U yerda bo`rilar to`dasi orasida yashagan ikki qizchani topishadi. Qizchalardan biri 2, boshqasi 7-8 yashar bo`lgan. Ular bo`rilarga xos xatti-harakatlar qilishgan, lekin gapirishni bilishmagan. Hindistonlik psixolog olim bu ikki go`dakni dastlab uyda, keyinchalik kattasini (kichigi ko`p vaqt o`tmay, kasallanib vafot etgan) bolalar uyida tarbiyalagan. Bu qiz yana 10 yil atrofida umr ko`rdi, ammo til va yurish-turishda aytarlik muvaffaqiyatga erisha olmadi. Bu yillar mobaynida u 45 ga yaqin so`zni o`rgandi, lekin



ulardan gap tuza olmadi. Bu voqeani chuqur tahlil qilgan mutaxassislar quyidagi xulosaga kelishadi:

1. Til tabiiy hodisa emas.
2. Tilning paydo bo`lishi uchun kishilik jamiyatni bo`lishi shart.
3. Til-nutq muhitini bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tomonlama til ta'siri o`tkazish muhim hal qiluvchi ahamiyatga ega.
4. Til va tafakkur bir vaqtida paydo bo`ladi, birga rivojlanadi, biri ikkinchisisiz yashay olmaydi.

Shunday qilib, til tabiatiga ko`ra ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo`ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog`liq. Til jamiyat bilan paydo bo`lganidek, jamiyat bilan birga o`ladi. Hozirda lotin, sanskrit tillari o`lik tillar deb aytiladi, chunki bu tillarda gaplashadigan, uni o`z ona tili deb hisoblaydigan xalq yo`q. Hozirgi kunda bu tillarning lug`at tarkibi, tovushlar majmui, grammatikasi bor, ular to`g`risida fikr yuritish, boshqa tillar bilan qiyoslash mumkin. Ammo bu tillarda rivojlanish yo`q, qadimdan qanday bo`lsa, hozir ham shunday qolaveradi.

Har bir tilning qudrati va afzaliyatları shu tilni yaratgan xalqning o`zi bilan birga yashasagina rivojlanib, o`sib boradi. O`z xalqidan va sarzaminidan uzilib qolgan til tabiiy kuchini, boyligi va go`zalligini yo`qota boshlaydi. Demak, el borki, til bor. Eldan uzilmagan odam tildan ham ayrılmaydi. Ushbu xulosalarimiz Alisher Navoiyning “Tilga ixtiyorsizlik elga e’tiborsizlikdan kelib chiqadi”, degan fikrini yana bir bor tasdiq etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Usmonova A. S, Umumiy tilshunoslikka kirish, T., 2016;
2. Будагов.Р.А, Человек и его язык. М., 2014;
3. Bozorova. M., Tilning paydo bo`lishi, M., 2019;
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)